# Libos mos-u xos boʻlsin

**Libos mos-u xos boʻlsin**

Libos xalqning milliyurf –odati va mentalitetiga daxldor boʻladi. Kiyinish ham xuddi shu ma’noda oʻziga xos madaniyat.

2018 yilning 3 sentyabrь kuni institutimizda faoliyat yuritayotgan xotin-qizlar jamoasi - professor oʻqituvchilar ishtirokida "kiyinish madaniyati" mavzuida umumiy yigʻilish boʻlib oʻtdi.
Ushbu yigʻilishda professor M. Botirova, dots. Xojiaxmedova va katta oʻqituvchilardan R. Qodirova va N. Toʻxtaevalar soʻzga chiqishdi. Ular kiyinish madaniyati faqat talabalarga emas, balki oʻqituvchilarga, bir soʻz bilan aytganda, barcha xodimlarga ham taalluqli ekanini e’tirof etishdi.
Barchaning ana shu qoidaga soʻzsiz rioya qilishi ta’kidlab oʻtildi. Undan tashqari har qanday pedagogning oʻzi, avvalo, talabalarga oʻrnak boʻlishi kerak. Bu uning yurish-turishi, koʻrinishi va kiyinishi, nutqi va xulqi goʻzallik qonuniyatlariga binoan boʻlishi zarur deganidir.

**Institut xotin-qizlar kengashi raisi Zulfiya Hafizova axboroti**
**Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**